

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2026.10.04.Ped.43.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

SHARIFOVA NIGORA AXTAM QIZI

**NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING
IJODIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(pedagogika fanlari)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Sharifova Nigora Axtam qizi

Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Шарифова Нигора Ахтам кизи

Совершенствование методики развития навыков творческой активности студентов на основе нейропедагогических подходов.....23

Sharifova Nigora Akhtam qizi

Enhancing the methodology for developing students' creative skills based on neuropedagogical approaches 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2026.10.04.Ped.43.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

SHARIFOVA NIGORA AXTAM QIZI

**NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING
IJODIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(pedagogika fanlari)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PdD/Ped8149 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bxu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dilova Nargiza Gaybullayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Ahmadov Olimjon Shodmonovich
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent
Qosimov Ubaydulla Axrorovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD. 03/2026.10.04.Ped.43.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «21» avgust soat 17.00 da majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200126, Buxoro viloyat, Buxoro shahar, Sitorayi Moxi-xossa MFY, G'ijduvon ko'chasi 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99, e-mail: bxu@gmail.com, bxu@exat.uz, web-sayt: www.bxu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (028 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200126, Buxoro viloyat, Buxoro shahar, Sitorayi Moxi-xossa MFY, G'ijduvon ko'chasi 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «10» avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil «10» avgust dagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



G.V.Izbullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d. (DSc), professor

G.R.Qurbonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d., (PhD) dotsent

Sh.X.Samiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
p.f.d.(DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. AQSH, Kanada, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida Character Education, Social-Emotional Learning kabi dasturlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan ta'lim modellari qo'llanilmoqda. Bu dasturlar ayni paytda, neyropedagogik yondashuvlarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi, talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning neyropedagogik mexanizmlarini aniqlash, ta'lim jarayonida kognitiv va emotsional jarayonlarning o'zaro ta'sirini hisobga oluvchi metodik tizimni ishlab chiqish hamda ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish xalqaro amaliyotida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda yoshlar ongida axloqiy qarashlarni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar, jumladan neyropedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, AQSH, Yaponiya va Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan Character Education va Social-Emotional Learning (SEL) kabi dasturlar axloqiy qadriyatlarning o'quv jarayonidagi o'rnini mustahkamlab, yoshlarda empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilagan. Bunday dasturlar orqali yoshlar ongida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan metodikalarning samaradorligi ortib, ularning asosida ko'plab ijobiy natijalarga erishilayotgani sababli, ushbu jarayonni yanada takomillashtirish va ushbu metodlarni keng joriy qilish zarurati ortmoqda.

O'zbekistonda yoshlarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq barkamol avlod tarbiyalashni davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.¹ Ta'lim jarayonida yoshlarning ijodiy va mantiqiy fikrlashi, tanqidiy tahlil qilishi, mustaqil fikr yuritishi va yangiliklar yaratishini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangicha yondashuvlarni², shuningdek, neyropedagogik texnologiyalarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini o'rganish va ularni pedagogik jarayonga tatbiq etish orqali yoshlarda axloqiy qarashlarni shakllantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlariga ehtiyoj ortmoqda. Bundan kelib chiqib, zamonaviy ta'lim tendensiyalariga asoslangan milliy ta'lim sharoitida yosh avlodda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan neyropedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni ta'limda keng qo'llash zaruriyati dolzarblashmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 244–246.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-yanvardagi PQ–23-son qarori. "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent, 2021.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3904-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talabalarning ijodiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari E.G‘oziyev, V.Karimova, A.Zunnunov, U.Mahkamov, Z.Mirtursunov, A.Munavvarov, M.Maxmudova, M.Inomova, O.Musurmonova, D.R.Xalikov, M.Quronov, N.Azimova, N.Qosimova, Y.Salimov, M.Mirqosimova, N.Egamberdiyeva, B.Xodjayevlarning tadqiqotlarida; milliy qadriyat va an‘analarga hurmat, yoshlarning etnopedagogik qarashlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar Z.Mirtursunov, A.Munavvarov, M.Maxmudova, D.Xalikov, M.Quronov, N.Azimova, N.Qosimova, Y.Salimov; zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta‘limda innovatsion texnologiyalar muammosi G.Yernazarova, N.Yusupova, M.Mirzayevalarning ishlarida o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida neyroteknologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish muammolar S.Ivanov, A.Nazarov, R.Aliyev, L.Smirnova, L.Gurevich, F.Axmedov, S.Bekmuxamedov, V.Andreyev, N.Zaxarova, A.Sidorov, Yu.Ivanov, Ye.Lisov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xorij mamlakatlari olimlaridan Dj.Franklin, Tomas, S.Braun, Suzanna Xill, Oliver Klark, Xovard Gardner, Daniel Goleman, Jems Rest, Djon Hattiye, Robert Sternberg kabi tadqiqotchilar axloqiy rivojlanish, shaxsning kognitiv va emotsional taraqqiyotiga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning yaxlit metodikasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti Buxoro xalqaro universitetining “Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy va kasbiy konsepsiyasining nazariy va pedagogik asoslari” (2023-2026 yy.) mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

oliy ta'lim jarayonida neyropedagogik tamoyillarni mavjud metodikalarga integratsiya qilish zaruratini ilmiy asoslash;

neyropedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning ijodiy faollik darajasini baholash mezonlarini takomillashtirish;

neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Buxoro Xalqaro universiteti, Turon universiteti, Oriyental universitetining 369 nafar talabalari respondent sifatida jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va shart-sharoitlari, nazariy-metodik asoslari, didaktik imkoniyatlari, ta'limiy va tarbiyaviy shakl hamda vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda nazariy usullar: adabiy manbalar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, funksional tahlil; diagnostik usullar: suhbatlar, so'rovnomalar, kuzatish, tuzilgan va yarim tuzilgan intervyular; amaliy usullar: modellashtirish, pedagogik eksperiment, xolatli tahlil hamda matematik va statistik usullar: ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash, dispersiya va korrelyatsion tahlili kabi usullar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik (dars tuzilishi, ko'p kanallilik, muammoli ta'lim) va psixologik (xavfsiz muhit, flow, motivatsiya) imkoniyatlari birgalikda va bir vaqtda faollashtiruvchi neyropedagogik integratsion o'qitish modelidan samarali foydalanish asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta'lim jarayonida neyropedagogik tamoyillarni mavjud o'qitish metodikalari bilan integratsiya qilish zarurati kompleks yondashuv asosida neyropedagogik mexanizmlarga tayangan holda o'qitishning kognitiv faoliyati, neyropsixologik xususiyatlari va individual o'rganish strategiyalari uch komponentli neyrokognitiv modeli “generatsiya + integratsiya + namoyon etish”ni taklif etish orqali ilmiy asoslangan;

neyropedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning ijodiy faollik darajasini baholash mezonlari dars tuzilishini, topshiriq dizaynini va o'qituvchi

xulq-atvorini neyroplatisitlik tamoyillarini qayta loyihalash asosida neyrobiologik daraja (miya faolligi ko'rsatkichlari), pedagogik daraja (o'quv natijalari), amaliy daraja (real hayotda qo'llana olish) sxemasidan foydalanish orqali takomillashtirilgan;

neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli kognitiv jarayonlar, neyropsixologik mexanizmlar va kreativ fikrlash komponentlarini integratsiyalash hamda talabalarning individual neyrodinamik xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod va texnologiyalar tizimini joriy etish orqali takomillashtirigan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan takomillashtirilgan ta'lim modeli amaliyotga joriy etilib, uning samaradorligi oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida sinovdan o'tkazildi. Talabalarning kognitiv va neyropsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar va didaktik vositalar majmui ishlab chiqildi hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostik vositalari ishlab chiqildi hamda ularning amaliy qo'llanilishi orqali ta'lim natijalarini monitoring qilish imkoniyati kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoning bilish nazariyasi metodologiyasi, pedagogika fanlari tizimida dialektika qonunlarining amal qilishi; jamiyat va tabiat hodisalarini tahlil qilishga nisbatan tizimli yondashuv, mavzu tadqiqida pedagogika fan tarmog'ii sohasidagi mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi olimlar, metodist va amaliyotchilarning tadqiqotlari va amaliy tajribalariga asoslanganligi; tadqiqot gipotezasining to'g'riligi pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samradorligi matematik-statistika metodlar vositasida asoslanganligi; tadqiqot maqsad va vazifalarining adekvatligi; xulosa, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati neyropedagogik yondashuv asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirish va boyitish, kognitiv, neyropsixologik, emotsional hamda kreativ komponentlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan ta'lim modelining ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish, talabalarning individual neyrodinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy faollikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlashtirish hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlarni takomillashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati neyropedagogik yondashuv asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan takomillashtirilgan ta'lim modeli, pedagogik shart-sharoitlar, metodik ta'minot, ijodiy topshiriqlar tizimi, amaliy tavsiyalar, baholash mezonlari va diagnostik vositalarning ishlab chiqilganligi hamda ularni oliy ta'lim jarayoniga joriy etish orqali talabalarning kreativ fikrlashi, mustaqil faoliyati, muammoli vaziyatlarga nostandart yechim topishi, innovatsion g'oyalarni ilgari surishi va ijodiy

salohiyatini rivojlantirish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik (dars tuzilishi, ko'p kanallilik, muammoli ta'lim) va psixologik (xavfsiz muhit, flow, motivatsiya) imkoniyatlari birgalikda va bir vaqtda faollashtiruvchi neyropedagogik integratsion o'qitish modelidan samarali foydalanish asosida aniqlashtirilgan ma'lumotlardan AL-9524115131-raqamli "Talabalarning ko'ngilli ijtimoiy – metodik harakatlari asosida inkluziv va uydagi ta'lim samaradorligini oshirish texnologiyalari" nomli amaliy loyiha doirasida ishlab chiqilgan metodik yechimlardan integratsiyalashgan holda foydalanilgan. (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 6-maydagi 01/09/315-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va innovatsion g'oyalar yaratish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlandi, o'quv jarayonida ularning kognitiv faolligi hamda refleksiv faoliyatini kuchaytirish darajasi oshgan;

oliy ta'lim jarayonida neyropedagogik tamoyillarni mavjud o'qitish metodikalari bilan integratsiya qilish zarurati kompleks yondashuv asosida neyropedagogik mexanizmlarga tayangan holda o'qitishning kognitiv faoliyati, neyropsixologik xususiyatlari va individual o'rganish strategiyalari uch komponentli neyrokognitiv modeli "generatsiya + integratsiya + namoyon etish"ni taklif etish orqali ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalardan tavsiyalardan "Robokit" MCHJ da bajarilgan "STEM yo'nalishida arduino bazasiga asoslangan DIY (do it yourself) konstruktorlarini yaratish hamda ularni o'qitish metodikasini ishlab chiqish" Startup loyihasida foydalanilgan ("Robokit" MCHJning 2025-yil 26-iyuldagi ma'lumotnomasi № 8). Natijada, talabalarning ijodiy faolligi, neyrokognitiv faollashuv darajasi va ta'lim natijalari samaradorligini oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligi kuchayib, talabalarning innovatsion fikrlash, konstruktorlik va muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi oshgan;

neyropedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning ijodiy faollik darajasini baholash mezonlari dars tuzilishini, topshiriq dizaynini va o'qituvchi xulq-atvorini neyroplatisitlik tamoyillarini qayta loyihalash asosida neyrobiologik daraja (miya faolligi ko'rsatkichlari), pedagogik daraja (o'quv natijalari), amaliy daraja (real hayotda qo'llana olish) sxemasidan foydalanish orqali takomillashtirilgan tavsiyalardan respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning 2020-2024-yillarda bajarilgan "OT-F1-002-Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" nomli fundamental loyiha mazmunini boyitishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 6 - maydagi 01-11-05/3380-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning ijodiy faollik darajasini baholashning ilmiy asoslangan, ko'p bosqichli va kompleks mezonlari ishlab chiqilib, ularning kognitiv, emotsional hamda amaliy faoliyatdagi namoyon bo'lish darajasini aniq diagnostika qilish imkoniyati kengaygan;

neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli kognitiv jarayonlar, neyropsixologik mexanizmlar va kreativ fikrlash komponentlarini integratsiyalash hamda talabalarning individual neyrodinamik xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod va texnologiyalar tizimini joriy etish orqali takomillashtirigan tavsiyalardan "Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi" nomli metodik qo'llanma mazmunini boyitishda foydalanilgan. (Buxoro davlat universitetining 2026-yil, 19-maydagi 01/01/322-son ma'lumotnomasi) Natijada, talabalarning individual kognitiv va neyropsixologik xususiyatlariga mos innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari kengaytirilib, ularning ijodiy faollik ko'nikmalari, kreativ fikrlashi va innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasini rivojlantirish samaradorligini oshirish jarajasi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mazmunini yorituvchi jami 17 nomdagi ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Ijodiy faollik tushunchasi, uning mohiyati, tarkibiy qismlari va turlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari yoritilgan. Oliy ta'lim jarayonida neyropedagogik tamoyillarni mavjud metodikalarga integratsiya qilish zarurati qiyosiy tahlilga tortilgan.

XXI asr ta'lim tizimidan fundamental bilimlarni egallagan va ularni ijodiy qo'llay oladigan, tanqidiy fikrlaydigan hamda o'zgaruvchan muhitga moslasha

oladigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Bu talablarni amalga oshirish uchun zamonaviy pedagogika fani neyrofanlar, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kesishmasida yangi yo'nalish - neyropedagogikani shakllantirdi. Neyropedagogika miya faoliyati mexanizmlari to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'qitish va o'rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuv hisoblanadi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifani amalga oshirish uchun an'anaviy pedagogik yondashuvlardan tashqari, miyaning o'zgarishi va rivojlanishiga asoslangan innovatsion usullarni qo'llash zaruriyati tug'ilmoqda. Neyropedagogik yondashuvlar talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantiradi.

Ijodiy faollik muammosi uzoq tarixga ega bo'lib, uning turli jihatlari jahon va mahalliy psixologiya fanida keng o'rganilgan (1-jadvalga qarang). Ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, ijodiy faollik faqatgina buyuk kashfiyotlar yoki san'at asarlari yaratish bilan cheklanmay, balki har bir insonning o'z hayotiga ijodiy yondashuvida ham ko'rinadi.

1-jadval

Ijodiy faollikka berilgan ta'riflar

Manba / olim	Ijodiy faollik - ta'rif mazmuni
J. P. Guilford	divergent fikrlash orqali ko'plab original g'oyalar yaratish qobiliyati
E. P. Torrance	flyuyentlik, elastiklik va originallikka asoslangan kreativ fikrlash jarayoni
L.S. Vigotskiy	moiy tajriba asosida yangi psixik mahsulot yaratish jarayoni
A.N. Leontev	motiv, maqsad va harakatlar birligida yangi natija yaratishga qaratilgan faoliyat
M. Ibragimov	talabaning mustaqil bilim izlash va yangi pedagogik yechimlar yaratish faoliyati
Q. Mahkamov	tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, muammoli vaziyatlarda yangi usullar yaratish faoliyati
Z. Nishonova	kognitiv va motivatsion sohalar uyg'unligida namoyon bo'ladigan kreativ faoliyat
U. Saidov	bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni integratsiya qilish orqali innovatsion yechimlar yaratish
Mualliflik ta'rifi	ta'lim oluvchining kognitiv, motivatsion, emotsional-irodaviy va amaliy komponentlari integratsiyasi asosida namoyon bo'ladigan, neyropedagogik ta'sirlar sharoitida miyaning neyroplastik imkoniyatlari faollashishi orqali yangi g'oyalar, original yechimlar va innovatsion mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan integrativ intellektual faoliyatidir.

M.Davletshin o'zining ko'p yillik izlanishlarida qobiliyatlar, jumladan, ijodiy qobiliyatlar psixologiyasiga oid fundamental g'oyalarni ilgari surgan. U qobiliyatlarning shakllanishida tabiiy imkoniyatlar bilan birga maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyaning hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlagan. E.G'oziyev o'z asarlarida shaxs psixologiyasi kontekstida ijodkorlikni shaxsning yetuklik darajasini belgilovchi muhim sifatlardan biri sifatida tahlil qilgan. B.Qodirovning tadqiqotlari ham qobiliyatlarni diagnostika qilish va rivojlantirish

muammolariga bag'ishlangan. So'nggi yillarda o'zbek olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar ijodiy faollikni kasbiy faoliyatda, xususan, pedagogik jarayonda namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijodiy faollik murakkab psixologik hodisa bo'lib, uni tushunish uchun kognitiv, shaxsiy, motivatsion va faoliyatga oid jihatlarni birgalikda, o'zaro aloqadorlikda o'rganish talab etiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Ijodiy faollikning tarkibiy qismlari

Tarkibiy qism	Mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlar	Pedagogik ahamiyati
Kognitiv komponent	Aqliy jarayonlar va bilimlarni qayta ishlash	tahlil, sintez, divergent fikrlash, muammo yechish	yangi g'oyalar yaratish uchun intellektual baza yaratadi
Motivatsion komponent	Ichki qiziqish va faoliyatga ehtiyoj	qiziqish, muvaffaqiyatga intilish, tashabbus	ijodiy faollikni boshlovchi kuch
Emotsional-irodaviy komponent	hissiy holat va barqarorlik	ishonch, tavakkal, qat'iyat	ijodiy jarayonda barqarorlikni ta'minlaydi
Faoliyatli komponent	amaliy ijodiy faoliyat	loyiha, yechim yaratish, mahsulot ishlab chiqish	nazariyani amaliyotga tatbiq qiladi
Refleksiv komponent	o'z faoliyatini baholash	tahlil, o'z-o'zini baholash, korreksiya	ijodiy jarayonni takomillashtiradi

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ijodiy faollik ko'p komponentli integrativ tizim bo'lib, uning kognitiv, motivatsion, emotsional va amaliy tarkiblari o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, ijodiy faollikning turlari va darajalari ta'lim jarayonida talabanning shaxsiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash va individual yondashuvni tashkil etish imkonini beradi.


Neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Pedagogik imkoniyatlar sifatida dars tuzilishini neyrokognitiv faollikka moslashtirish, ko'p kanalli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, muammoli ta'lim muhitini yaratish va faol o'qitish metodlarini qo'llash belgilandi. Psixologik imkoniyatlar esa talabalar uchun psixologik xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirish, ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, "flow" holati³ni yuzaga keltirish hamda emotsional barqarorlikni ta'minlash omillari bilan asoslantirildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur pedagogik va psixologik omillarning o'zaro integratsiyasi talabalarning kognitiv faolligi, kreativ fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va innovatsion g'oyalar generatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda pedagogik va psixologik imkoniyatlarni bir vaqtning o'zida faollashtirishga yo'naltirilgan

³ "Flow" holati (inglizcha *flow state*) - bu shaxsning muayyan faoliyatni bajarish jarayonida unga to'liq sho'ng'ib ketishi, yuqori darajadagi diqqatni jamlashi, ichki motivatsiya va zavq bilan faoliyat olib borishi natijasida maksimal samaradorlikka erishish holatidir.

neyropedagogik integratsion o‘qitish modeli taklif etildi hamda uning ijodiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishi tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlandi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, flow holati bu talabaning o‘quv yoki ijodiy faoliyat jarayonida ichki motivatsiya, yuqori darajadagi diqqat va kognitiv faollik uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladigan, maksimal samaradorlik va kreativ mahsuldorlikni ta‘minlovchi optimal psixologik holatdir.⁴

Neyropedagogikaning asosiy tamoyillari – neyronlarning plastikligi, emotsional ta‘lim, individual differensiatsiya, multimodal yondashuv va doimiy feedback – talaba markazli ta‘lim paradigmasini amalga oshirish uchun mustahkam ilmiy baza hisoblanadi. Ushbu tamoyillarni amaliy qo‘llash orqali bilim o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, talabalarning shaxsiy potentsialini ro‘yobga chiqarish va XXI asr talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm: Oliy ta‘lim jarayonida neyropedagogik tamoyillar

Mazkur sxema oliy ta‘lim jarayonida neyropedagogik tamoyillarning mazmuni, tuzilishi va ularning o‘zaro bog‘liqligini tizimli ravishda aks ettiradi. Unda neyropedagogik yondashuv ta‘lim jarayonini inson miyasi faoliyati qonuniyatlariga moslashtirishga qaratilgan kompleks didaktik tizim sifatida talqin qilingan.

Dissertatsiyaning “**Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarda ijodiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta‘lim jarayonida neyropedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning ijodiy faollik darajasini baholash mezonlari haqida tadqiqot natijalari yoritilgan. Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli tavsiya etilgan. O‘quv jarayonida talabalarning ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi neyroplastik mashqlardan foydalanish mazmuni haqida ilmiy nazariy ma‘lumotlar va mualliflik yondashuvlari bayon etilgan.

⁴ Mualliflik yondashuvi

Oliy ta'lim tizimida talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan neyroplastik mashqlar muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu mashqlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning qaysi fanlar doirasida va qanday metodik asosda qo'llanilishiga bog'liq.

Tadqiqotda neyroplastik mashqlar barcha fanlar doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal didaktik vosita hisoblanadi. Biroq ularning samaradorligi fanning xususiyati, o'quv jarayonining tashkil etilishi hamda talabalarining faol ishtirok darajasiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, gumanitar va pedagogik fanlarda ushbu mashqlar talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirishda yuqori natijalarni ta'minlashi aniqlandi. Shu bilan birga, texnik va tabiiy fanlarda ular innovatsion muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Neyroplastik mashqlarning fanlar kesimida ta'sir darajasi

Fanlar guruhi	Ijodiy faollikka ta'siri	Neyroplastik mashqlar turi	Kutilayotgan natija
Gumanitar va pedagogik	Juda yuqori	Brainstorming, refleksiya, empatiya	Kreativ va tanqidiy fikrlash
San'at fanlari	Juda yuqori	Vizualizatsiya, erkin ijod	Maksimal kreativlik
Ijtimoiy fanlar	Yuqori	Case study, muammoli vaziyat	Strategik fikrlash
Texnik fanlar	O'rta-yuqori	Design thinking, muammo yechish	Innovatsion yondashuv
Tabiiy fanlar	O'rta	Eksperiment, modellash	Ilmiy tafakkur

Neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollikni rivojlantirish jarayonida neyroplastik mashqlarni qo'llash samaradorligini kompleks tarzda aks ettiradi. Unda fanlar kesimida olingan natijalar va pedagogik talqin o'zaro bog'liq holda ifodalangan. Tahlil natijalariga ko'ra, gumanitar fanlarda ijodiy faollikning eng yuqori o'sishi kuzatilgan bo'lib, bu fanlarda divergent fikrlash va kreativ yondashuv faol rivojlangan. Ushbu natijalar neyropedagogik yondashuvning ta'lim jarayonida talabalarining ichki salohiyatini ochish va miya faoliyatining tabiiy mexanizmlariga mos ravishda o'qitishni tashkil etishda samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqotda oliy ta'lim jarayonida neyropedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarining ijodiy faollik darajasini baholashning kognitiv-kreativ, metakognitiv, emotsional-regulyativ, ijtimoiy-kommunikativ hamda amaliy-innovatsion mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur mezonlar divergent fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish, refleksiv faoliyatni amalga oshirish, hamkorlikda ishlash, raqamli va neyropedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ijodiy mahsulot yaratish ko'rsatkichlari asosida takomillashtirildi. Baholash natijalari talabalarining ijodiy faolligini yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha aniqlash, ularning kreativ rivojlanish dinamikasini monitoring qilish hamda

neyropedagogik texnologiyalar samaradorligini baholash imkonini berdi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Oliy ta'lim jarayonida neyropedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning ijodiy faollik darajasini baholash mezonlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar
Kognitiv-kreativ	Divergent fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish, muammolarga kreativ yondashish
Metakognitiv	Refleksiya, o'z-o'zini nazorat qilish, o'quv faoliyatini rejalashtirish
Emotsional-regulyativ	Ichki motivatsiya, kreativ tashabbuskorlik, emotsional barqarorlik
Ijtimoiy-kommunikativ	Hamkorlik, muloqot, jamoaviy ijodiy faoliyat
Amaliy-innovatsion	Kreativ mahsulot yaratish, loyiha faoliyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish

Tadqiqot natijalari asosida neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli tavsiya etildi (2-rasmga qarang).



2-rasm: Neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli

Mazkur model neyropedagogik yondashuv asosida talabalarning ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy, metodologik va amaliy mexanizmlarini ifodalaydi. Model tarkibi maqsadli, strategik, informatsion, funksional, operatsion, diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topgan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi talabalarning kognitiv, metakognitiv, emotsional-regulyativ, ijtimoiy-kommunikativ hamda kreativ-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelda neuroplastiklik, raqamli ta'lim muhiti, individual neuroprofil va XXI asr ko'nikmalarining integratsiyasi asosiy pedagogik shartlar sifatida belgilangan. Natijada talabalarda barqaror ijodiy tafakkur, innovatsion faoliyatga tayyorlik, mustaqil qaror qabul qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi hamda raqobatbardosh mutaxassis sifatlari shakllanishi ta'minlanadi.

Natijalar neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida neuroplastik mashqlardan tizimli foydalanish talabalarning ijodiy faolligi va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini tasdiqladi.

Neyroplastik mashqlar - bu miyaning yangi neyron aloqalar hosil qilish, mavjud aloqalarni mustahkamlash va kognitiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar majmuasidir. Neyropedagogik yondashuvda bunday mashqlar talabalarning ijodiy faolligi, divergent fikrlashi va metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega(5-jadvalga qarang).

5-jadval

Talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan neyroplastik mashqlar

Mashq nomi	Mazmuni	Rivojlantiriladigan ko'nikma
Assotsiativ zanjir	Berilgan so'zdan kelib chiqib 10–15 ta bog'liq tushunchani yozish	Divergent fikrlash
Aksincha fikrlash	Muammoning odatiy emas, teskari yechimlarini topish	Kreativ tafakkur
30 ta g'oya	Bir muammo bo'yicha qisqa vaqt ichida 30 ta yechim yozish	G'oya generatsiyasi
Mental xarita	Markaziy tushunchadan kelib chiqib bog'lanishlar yaratish	Assotsiativ tafakkur
Ikki yarim shar mashqi	Bir vaqtning o'zida ikki qo'l bilan simmetrik shakllar chizish	Miya yarim sharlari integratsiyasi
Noodatiy foydalanish	Oddiy buyumning 20 xil yangi vazifasini topish	Kreativlik
Flow topshirig'i	Talabani qiziqishiga mos ijodiy vazifa berish	Ichki motivatsiya
Neyrogimnastika	Kross-harakatlar, "Brain Gym" mashqlari	Diqqat va koordinatsiya
Refleksiv kundalik	Har kuni yangi g'oya va xulosalarni yozib borish	Metakognitsiya

Tajriba-sinov jarayonida neyropedagogik trening uchun 5 daqiqalik mashqlardan ham foydalanildi. "100 soniyada 20 g'oya" - talaba berilgan mavzu bo'yicha 100 soniyada 20 ta g'oya yozadi. "Tasodifiy bog'lanish" - bir-biriga aloqasi yo'q ikki tushunchani bog'lab yangi loyiha yaratadi. "Nima bo'lardi agar..." - fantastik savollar asosida muammoga kreativ yechim topadi. "Bir rasm – besh hikoya" - bitta rasm asosida 5 xil syujet tuzadi. "Bir muammo – uch yechim" - har qanday muammoni texnologik, pedagogik va kreativ nuqtai nazardan hal qiladi.

Neyroplastik mashqlar⁵ – bu miyaning neyron aloqalarini faollashtirish, kognitiv moslashuvchanlikni oshirish, divergent fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik topshiriqlar tizimi bo'lib, ular talabalarning kreativ salohiyati va innovatsion tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi(6-jadvalga qarang).

6-jadval

⁵ Mualliflik yondashuvi

Talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda neyroplastik mashqlarning samaradorligi

Neyroplastik mashqlar	Rivojlantiriladigan ko'nikmalar
“Nima bo'lardi agar...” mashqi	Fantaziya, kreativ tasavvur
Aqliy hujum	Divergent fikrlash, g'oya generatsiyasi
Kreativ keys-stadi	Muammoli vaziyatlarni hal etish
30 ta g'oya usuli	Tezkor kreativ fikrlash
Flow holatini faollashtiruvchi topshiriqlar	Ichki motivatsiya, ijodiy mahsuldorlik
Refleksiv kundalik	Metakognitiv faoliyat

Tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan neyroplastik mashqlar orasida “Nima bo'lardi agar...” mashqi (89,4 %), Aqliy hujum (87,8 %) va Kreativ keys-stadi (85,6 %) talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini namoyon etdi. Mazkur mashqlar divergent fikrlash, innovatsion g'oyalar yaratish, muammolarga kreativ yondashish va metakognitiv faoliyatni faollashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

“Pedagogik mahorat” 6-mavzu: “O'qituvchi pedagogik faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.

Darsning maqsadi: Talabalarda muloqot madaniyati va psixologiyasi bo'yicha bilimlarni shakllantirish; Umuminsoniy qadriyatlar asosida muloqot olib borish ko'nikmasini rivojlantirish; neyropedagogik asosda ijodiy fikrlash, empatiya va refleksiyani faollashtirish. Kutilayotgan natijalar: talaba - muloqotning psixologik mexanizmlarini tushunadi; qadriyatlarga asoslangan muloqot olib boradi; ijodiy va mustaqil fikr bildiradi; refleksiv tahlil qila oladi (7-jadalga qarang).

7-jadval.

Neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan darsning texnologik xaritasi

Bosqich	Vaqt	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati	Neyropedagogik asos	Natija
